



## O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI MOLIVAVIY QO'LLAB- QUVVATLASH YO'NALISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Hojiyev Rustam Hojimurodovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12177488>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-June 2024 yil  
Ma'qullandi: 15- June 2024 yil  
Nashr qilindi: 20- June 2024 yil

### KEYWORDS

aktivlar, kredit  
tavakkalchiligi, aktivning jami  
qiymati, standart kreditlar,  
substandart kreditlar, bank  
tizimi, islohotlar, moliyaviy  
barqarorlik, xizmatlar  
mavjudligi, raqamli  
texnologiyalar.

### ABSTRACT

*Jahonda eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirishning konseptual asoslarini yoritib berish hamda takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Eksport salohiyatini davlat tomonidan boshqarishning asosiy modellari, eksportchilarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali moliyaviy vositalari – eksport operatsiyalarini moliyalashtirish, kreditlash, eksimbanklar va eksport-kredit agentliklari faoliyatini rivojlantirish, sug'urtalash va kafolatlash, soliq imtiyozlari, subsidiyalash, kichik biznes eksportiga ko'maklashish, innovasion eksportni rag'barlantirish kabi zamonaviy uslub, vosita va manbalardan foydalanishning real imkoniyatlari hamda ko'lamini oshirish orqali mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda*

Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining fundamental xususiyatlarini aks ettiruvchi tamoyillar ro'yxati eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi elementlarining turli qirralari va o'zaro bog'liqligini tavsiflaydi. Ushbu tamoyillarni tizimli amaliy amalgaoshirish jahon iqtisodiy tizimida O'zbekiston Respublikasining qiyosiy raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish samaradorligini oshirish va eksport qiluvchi korxonalarining xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi ishtirokidan maksimal foydaolish imkonini beradi.

### 2.5. – jadval

**O'zbekiston Respublikasining Xalqaro savdo standartlari tasnifi bo'yicha eksportning tarkibi**

ХссТ таркиби	Млн. Ақш доллари		Ўсиш суръати, % да		Умумий ҳажмга нисбатан, % да	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
<b>Жами экспорт</b>	<b>6 279,9</b>	<b>7 055,5</b>	<b>77,3</b>	<b>112,3</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
Шу жумладан:						
Озиқ-овқат маҳсулотлари ва тирик хайвонлар	556,4	591,2	73,3	106,3	8,9	8,4
Ичимликлар ва тамаки	14,6	14,1	145,5	97,0	0,2	0,2
Нозиқ-овқат хомашё, йоқилгидан ташқари	232,3	257,8	62,6	111,0	3,7	3,7
Минерал йоқилғи, ёғлаш мойлари ва шунга охшаш материаллар	315,4	288,6	28,9	91,5	5,0	4,1
Хайвон ва ўсимликлар мойлари (ёғлари), ёғлар ва мумлар	17,6	1,1	2,8 6.	6,3	0,3	0,0
Кимёвий воситалар ва бошқа тоифаларга киритилмаган шунга ўхшаш маҳсулотлар	391,3	464,1	90,8	118,6	6,2	6,6
саноат товарлари	1 166,1	2 034,0	85,9	174,4	18,6	28,8
Машиналар ва транспорт асбоб- ускуналари	160,3	324,9	87,2	2,0 6.	2,6	4,6
Турли хил таййор буйумлар	280,6	367,7	135,5	131,1	4,5	5,2
Бошқа товарлар	2 133,0	1 578,7	100,4	74,0	34,0	22,4
шу жумладан: олтин	2 124,6	1 386,5	101,4	65,3	33,8	19,7
Хизматлар	1 012,3	1 133,4	64,0	112,0	16,1	16,1

Xizmatlar eksporti 1,1 milliard dollarni yoki umumiy yeksport hajmining 16,1 foizini tashkil etdi. O'zbekiston eksporti tarkibidaoltin asosiy o'rinni egallaydi (33,8%), undan keyin sanoat tovarlari (18,7%), xizmatlar (16,1%), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,9%), kimyoviy moddalar (6,1%), mineral yoqilg'i (5,1%) va boshqalar.

Dissertasion tadqiqotimizda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining faoliyat ko'rsatishi uning asosida yotgan tamoyillar tizimiga rioya qilingan taqdirdagina mumkinligi asoslab berilgan.

Dissertasion tadqiqotimizda eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining faoliyat ko'rsatishi uning asosida yotgan tamoyillar tizimiga rioya qilingan taqdirdagina mumkinligi asoslab berilgan.

Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining fundamental xususiyatlarini aks ettiruvchi tamoyillar ro'yxati eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi elementlarining turli qirralari va o'zaro bog'liqligini tavsiflaydi. Ushbu tamoyillarni tizimli amaliy amalgaoshirish jahon iqtisodiy tizimida O'zbekiston Respublikasining qiyosiy raqobatdosh ustunliklaridan foydalanish samaradorligini oshirish va eksport qiluvchi korxonalarining xalqaro mehnat taqsimoti tizimidagi ishtirokidan maksimal foydaolish imkonini beradi.

Dissertatsiya ta'sir qilish ob'ektlari nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasining eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning amaldagi tizimi ochiq bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan aksariyat mamlakatlarda qo'llaniladigan tizimlardan tubdan farq qilishini

kuzatishga asoslanadi. Bu mamlakatlarda hukumatning sa'y-harakatlari asosan eksportni subsidiyalash, imtiyozli kreditlar berish, bojxona to'lovlari stavkalarini o'zgartirish orqali importni optimallashtirish va kerak bo'lganda miqdoriy cheklovlarni joriy etish orqali eksportni rag'batlantirishga qaratilgan. Aksincha, O'zbekiston Respublikasi eksport bojxona yig'imlari yordamida xomashyo eksportini cheklash siyosatini olib bormoqda va yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini moliyalashtirish va rag'batlantirish mexanizmi deyarli mavjud emas.

Mamlakatda eksport salohiyatining oshib borayotganligiga eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanayotganligi ham muhim ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday tizim quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, ularning har biri xususida tahliliy ma'lumotlarga tayangan holda qisqacha to'xtalib o'tamiz:

- eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlari;
- eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlari;
- eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar.

Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, keyingi yillarda bu borada ko'plab ijobiy siljishlarni yuz berayotganligining guvohi bo'lamiz.

Eksportni davlat tomonidan kreditlash orqali qo'llab-quvvatlash. Mamlakatimizda eksport kreditlarini rivojlantirishga muhim e'tibor qaratilayotgan bo'lib, bunga O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar eksportini moliyalashtirishni misol tariqasida keltirish mumkin. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 25 maydagi «Rossiya Federatsiyasi bilan investitsion vasavdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 1962-sonli Farmoni asosida amalga oshirilib kelmoqda.

Eksport kreditlarini davlat tomonidan sug'urtalash va kafolatlash. Bugungi kunda mamlakatimizda eksport kreditlarini sug'urtalash va kafolatlash bilan shug'ullanadigan asosiy davlat tashkiloti bo'lib «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi hisoblanib, u Eksport kreditlari va investitsiyalar sug'urtalovchilari xalqaro Bern ittifoqi Praga klubining to'laqonli a'zosi. Ushbu a'zolik doirasida kompaniya 20 dan ortiq xorijiy mamlakatlarning davlat eksport-kredit agentliklari bilan hamkorlik qiladi.

Eksportyorlarni davlat tomonidan soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash. Biz yuqorida eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlarining ayrim muhimlarini ko'rib o'tganimizda, ularning deyarli barchasida soliq imtiyozlariga e'tibor qaratilganligining guvohi bo'lamiz.

Eksportni davlat tomonidan subsidiyalash orqali qo'llab-quvvatlash. Bizning fikrimizcha, ushbu moliyaviy instrumentni amalga oshirish ancha ko'p xarajat talab qilgani bois, bugungi kunda eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda undan foydalanishga unchalik ehtiyoj tug'ilmayapti.

Kichik biznes sub'ektlarini eksport qilishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan turli fondlarni tashkil etish va rivojlantirishni ta'kidlab o'tganimizdek, O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi zarur qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yordamida shakllantirib kelinmoqda.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari, fermer xo'jaliklariga quyidagilar borasida tekin moliyaviy yordam ko'rsatadi:

- mahalliy eksportbop mahsulot brendlarini rivojlantirish, eksport qilishni

rag'batlantirish, jumladan xorijiy mamlakatlar qonunchiligiga muvofiq ravishda zarur litsenziyalar, ruxsatnomalar vasertifikatlar uchun to'lovlarni xalqaro tender savdolarida ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan registrasion yig'imlar va boshqa to'lovlarni amalga oshirish;

- eksport shartnomalarini tuzish, yangi bozorlarga chiqishni ta'minlash va yangi turdagi mahsulotlarni eksport qilish maqsadida xorijiy ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 14 yanvardagi PQ-4949-sonli «2021 yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalgaoshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq 2021 yilda O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini amalgaoshirish chora-tadbirlari belgilandi.

Eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, uning hajmlari barqaror o'sishini ta'minlash va tarkibini takomillashtirish bo'yicha mamlakatda amalgaoshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar, ushbu maqsadlarda mavjud resurs va ishlab chiqarish salohiyatidan maksimal darajada foydalanish koronavirus pandemiyasi munosabati bilan joriy etilgan cheklovlarning oqibatlarini yumshatish imkonini berdi.

Tadqiqotlarimiz natijasida joriy vaziyatda O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab - quvvatlovchi tashkilotlarni 2.4-rasmda keltirib o'tilgan.



**2.4 - rasm. O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab - quvvatlovchi tashkilotlar tizimi**

Ushbu rasimga qisqacha tavsif beradigan bo'lsak, O'zR TIAISV huzuridagi tashqi savdo kompaniyalari, «O'zbekinvest» EIMSK, Tijorat banklari hamda boshqa tashkilotlar, jumladan tarmoq idoralari va ularning tarkibidagi maxsus tashkilotlar, investitsion guruhlar yoki hamkor tashkilotlar hamda tijorat-vositachi tashkilotlar eksport qiluvchi korxonalarining

faoliyatini moliyaviy qo'llab- quvvatlashda unchalik darajada faol emaslar. Bundan tashqari, ushbu so'nggi nomlari keltirilgan uchala tashkilot moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan ko'ra ko'proq nomoliyaviy qo'llab-quvvatlashga moyilliklari bilan xususiyatlanadi.

Umuman olganda, O'zbekiston eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab- quvvatlash tizimining rivojlanib borayotganligi mamlakat eksport salohiyatining yildan-yilga oshib borayotganligi bilan izohlanadi. Mos ravishda, bunday o'zgarish eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yayotgan bo'lib, bu birinchi navbatda ham eksport qiluvchi korxonalarining manfaatlari va ham mamlakatning eksportdan ko'radigan manfaatlarini o'zaro uyg'unlikda rivojlantirilishi talabini qat'iy qo'ymoqda.

Eksportni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va uni bir-birini to'ldiruvchi faoliyat tizimiga aylantirish uchun quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- Ilm-fan, texnologiya va innovatsiyalarning so'nggi bir necha o'n yilliklardagi jadal rivojlanishi transport va aloqa usullarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini oshirish va mahsulot takliflarini tezda yangilash, natijada faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun xalqaro savdodan tushadigan daromadni oshirish imkonini berdi.

- mahsulot va xizmatlar eksportining yalpi ichki mahsulotga nisbatan tez sur'atlar bilan o'sishi natijasida mamlakat iqtisodiy hissasining o'sishi;

- xalqaro savdo tarkibining ishlab chiqarish foydasiga sezilarli o'zgarishi, ayniqsa texnik jihatdan qiyin bo'lgan va eksportchilardan sezilarli moliyaviy resurslarni talab qiladigan ishlab chiqarish ob'ektlari eksporti;

- tobora yangi shakllarda namoyon bo'layotgan raqobatning kuchayishi (raqobat ob'ekti mahsulotning yangiligi, uning xavfsizligini ta'minlash va foydaliligini oshirishdir);

Shunday ekan, bugungi kunda milliy iqtisodiy siyosatda eksportni rag'batlantirish hukumat faoliyatining ikkinchi darajali sohasidan asosiy o'ringa chiqdi.

Eksportni rag'batlantirishning tashkiliy va boshqa mexanizmlaridan (davlat organlari va yuqori mansabdor shaxslarning bevosita eksportyorlar bilan hamkorligi, shu jumladan eksport qiluvchilarga yirik shartnomalar tuzish, istiqbolli eksport bo'shliqlarini izlashda hamkorlik qilish, eksport operatsiyalarini osonlashtiradigan turli xizmatlarni ko'rsatish, ma'naviy rag'batlantirish) foydalanish. eksport qiluvchilarning davlat tomonidan) tegishli ma'lumotlar dissertatsiya tadqiqotimizning ushbu bandida batafsil tahlil qilingan.

Soliq imtiyozlari, xususan, eksportchilarga beriladigan subsidiyalar tubdan o'ziga xos ma'noga ega, shuning uchun ularni eksportchilarga berish jahon iqtisodiyotida keskin nomuvofiqliklarga olib keladi..

Deyarli barcha sanoati rivojlangan davlatlar mahalliy tovarlarni xorij bozorlariga yetkazib berish bilan bog'liq kundalik faoliyatni rejalashtiruvchi va boshqaradigan ixtisoslashgan hukumat tashkilotlarini yaratdilar. Shuningdek, bu vazifalar ko'pincha o'zlarining maxsus jihozlari va alohida budjetlariga ega bo'lgan vakolatli davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Globallashuv sharoitida eksportga davlat yordamini ekspertiza qilishdan asosiy maqsad ilmiy va amaliy jihatdan ushbu sohaga qiziqish bildirishi mumkin bo'lgan nisbatan yaqinda paydo bo'lgan davlat faoliyati yo'llarini aniqlashdan iborat.

Hududiy joylarning ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ilmiy muassasalar vasanoat korxonalarini o'rtasida yaqin hamkorlik qilish uchun eng qulay bojxona, soliq va ma'muriy shart-sharoitlarga ega bo'lgan va xorijda talab kuchli bo'lgan yuqori texnologiyali mahsulotlarni

yaratishga ixtisoslashgan ilmiy-ishlab chiqarish (yoki texnologik) parklarini yaratishga oid hukumatlar faoliyati, ayniqsa, diqqatga sazovordir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Астраханцева И.А., Дубов Д.А., Кутузова А.С. "Комплаенс-контроль в коммерческом банке," Аудит и финансовый анализ, no. 2, 2015.
2. Булыга Р.П. Куприянова Л.М. "Оценка комплаенс-рисков," Экономика. Бизнес. Банки, no. 3, 2015.
3. Дубов Д.А. "Мониторинг режимов эмбарго и санкций в деятельности комплаенс подразделений российских банков," Управление экономическими системами: электронный научный журнал, no. 4 (98), p. 26, 2017.
4. Дубов Д.А. "Внедрение системы комплаенс контроля в кредитных организациях," Инновационная наука, no. 2-1 (14), 2016.
5. Дудова И.Л. "Стандарты и методология комплаенс-контроля. Управление комплаенс-рисками," Управление финансовыми рисками, no. 1, 2011.
6. Ермакова Н.А. Ахунянова Ч.Ф. "Комплаенс-контроль в системе внутреннего контроля корпораций," Международный бухгалтерский учет, no. 3 (297), 2014.
7. Зуева А.С., Невянцева В.А. "Особенности правового регулирования комплаенс-контроля в банковской деятельности в условиях экономической нестабильности," Инновационное развитие экономики, no. 3, 2017.
8. Кириллов Р.А. "Теоретические основы управления регуляторным риском в системе внутреннего контроля банка," Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право, vol. 14, no. 4, 2014

INNOVATIVE  
ACADEMY